

Sayfulloyeva Gulobod Faxriddinovna

BITU O‘zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti,

e-mail: gulifaxriddinovna67@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lingvomadaniyatshunoslik fanining nazariy asoslari, uning til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganishdagi o‘rni yoritilgan. Badiiy matn xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va milliy mentalitetini aks ettiruvchi madaniy kod sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda til birliklarining milliy-madaniy mazmuni, emotsional ifoda vositalari hamda madaniy konseptlarning tildagi namoyon bo‘lishi qiyosiy misollar asosida tahlil etiladi. Shuningdek, Said Ahmad ijodi lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganilib, yozuvchining asarlarida milliy ruh, oila qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlar va xalq mentalitetining til orqali ifodalanishi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek badiiy adabiyotining lingvomadaniy jihatdan boy ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, til va madaniyat, milliy mentalitet, madaniy kod, badiiy matn, Said Ahmad, lingvomadaniy tahlil.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы лингвокультурологии и ее роль в изучении взаимосвязи языка и культуры. Художественный текст интерпретируется как культурный код, сохраняющий историческую память, социальный опыт и национальный менталитет народа. В работе анализируются национально-культурные значения языковых единиц, эмоционально-экспрессивные средства и культурные концепты на материале сопоставительных примеров. Особое внимание уделяется лингвокультурному анализу произведений Саида Ахмада, в которых через юмор, диалоги и образную систему отражаются семейные ценности, национальный характер и социальные отношения. Результаты исследования подтверждают высокую лингвокультурную насыщенность узбекской художественной литературы.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, язык и культура, национальный менталитет, культурный код, художественный текст, Саид Ахмад, лингвокультурный анализ.*

Abstract. *This article examines the theoretical foundations of linguoculturology and its role in studying the close relationship between language and culture. A literary text is viewed as a cultural code that preserves a nation’s historical memory, social experience, and national mentality. The study analyzes the national and cultural meanings of linguistic units, emotional expressive forms, and cultural concepts using comparative examples. Particular attention is paid to the linguocultural analysis of Said Ahmad’s works, which vividly reflect national spirit, family values, social relations, and collective mentality through humor, dialogues, and artistic imagery. The findings demonstrate the rich*

linguocultural potential of Uzbek literary texts and highlight the importance of linguocultural approaches in literary studies.

Key words: *linguoculturology, language and culture, national mentality, cultural code, literary text, Said Ahmad, linguocultural analysis.*

Lingvomadaniyatshunoslik tilni millat madaniyati bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida o‘rganadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, badiiy matn xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va mentalitetini saqlovchi madaniy kod vazifasini bajaradi. Lingvomadaniyatshunoslik o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, “lingvokulturologiya” (lot. lingua “til”; cultus “hurmat qilish, ta‘zim qilish”; yunon. “ilm, fan”) termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi (Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslova) tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.

Ma‘lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya‘ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”[1]. Til va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi.

Madaniyat qanchalik chuqur va tafsilotlari bilan o‘rganilsa, uning inson fikrlashi bilan bog‘liq ekanligi yakdil seziladi. Shunday ekan, inson ko‘z o‘ngida aks etgan voqea-hodisalarni madaniyati orqali ongiga singdirishga hamisha intiladi. Ma‘lumki, insonlar ma‘lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, u yoki bu milliy tilda so‘zlashadilar va ular muayyan milliy ma‘naviyat va madaniyatga ega. Milliy ma‘naviyat, uni ro‘yobga chiqishida muhim o‘rin tutadigan til madaniyati va nutq ma‘naviyatining o‘ziga xos xususiyatlari

insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o‘z aksini topadi. Masalan, biron narsadan ta’sirlanganda emotsional holatni inglizlar “Oh my God!”, nemis ayoli “Mein Got!”, rus ayoli “O боже!”, o‘zbek ayoli esa “E, xudoyim”² tarzlarida ifodalaydi. Turli millatlarga mansub bo‘lgan insonlar til madaniyati va nutq ma‘naviyatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi ushbu misoldan ko‘rinib turganidek, to‘satdan sodir bo‘lgan his – hayajonni ifodalashda hech qanday lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan undov so‘zlaridan foydalanadilar.

Insonning hayot kechirishida kerakli predmetlar hamda yuzaga keladigan

voqea-hodisalarni madaniyat vositasi deb fikr yuritish ham bo‘ladi. Masalan, quyoshni yoki oyni madaniyatga kiritish bir tomondan mumkin emasdek ko‘rinadi. Ammo barcha xalqlar madaniyatida ushbu tushunchalarning mavjud ekanligi ma‘lum. Lekin ba‘zi salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobiy baholaydi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida

ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirib, salbiy baholanadi. Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi emas, balki madaniyat mahsuli sifatida tushunsa bo‘ladi. Shu bilan birga diniy nuqtayi nazaridan ham ushbu qarash farqlanadi. Zartushtiylik dinida yovuzlik xudosi Axriman insonlar vafotidan keyin yomon ishlarni qilgan bo‘lsa jahannamga ya‘ni jazirama issiqlikka giriftor bo‘lishadi.

Janubda yashovchi xalqlar madaniyatida oy alohida e‘tirof bilan tilga olinadi. Ruslar ongida u qorong‘ilik, oxirat bilan bog‘lanib, ba‘zida hayot va momot bilan tasavvur qilinsa, oy nuri boshqa slavyanlarda homilador hamda norasidalar uchun havfli, ziyon keltiradigan hodisaga taqqoslanadi. Shu kabi oyga munosabat - o‘zbek xalqiga ham mansub ekanligini alohida ta‘kidlash lozim. Chunki o‘zbeklarda oy

quyoshdan nur olib, yog‘du soluvchi samoviy jismgina emas (oy yuzida dog‘ borligi), balki “go‘zal, chiroyli yuz” (“Oydanda go‘zaldir, kundanda go‘zal” – she‘rdan), safarga ketayotgan kimsaga yaxshilik tilash (“Oy

borib omon qayt”) ma‘nolarida ishlatiladi. Shuni aytib o‘tish joizki, rus xalqida ham “лицо как луна” iborasi go‘zalikka tan berishni anglatadi. Bunga o‘xshagan misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham uchratish mumkin.

Turli xalqlar madaniyatida mavjud yuqorida keltirilgan o‘ziga xos alohidaliklarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus, o‘zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan.

XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Said Ahmad ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning asarlari nafaqat badiiy yuksakligi, balki xalq hayoti, milliy xarakter va madaniy qadriyatlarni haqqoniy aks ettirgani bilan ham ahamiyatlidir. Zamonaviy tilshunoslikda bunday asarlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Said Ahmad ijodida keng tasvir, dialoglar va yumor vositasida milliy madaniyat aks ettiriladi. Uning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asarida kelin-kuyov, qaynona-kelin munosabatlari, oila qadriyatlari kabi konseptlar lingvomadaniy jihatdan chuqur yoritilgan.

Said Ahmad xalq og‘zaki nutqiga xos so‘zlashuv birliklarini, maqol va matallarni faol qo‘llaydi. Bu esa asarlarning hayotiylikini oshirib, milliy madaniyatni jonli tarzda namoyon etadi. Uning asarlarida yumor madaniy tanqid vositasi sifatida xizmat qiladi. Yozuvchining hikoyalarida oila, mahalla, ayol obrazi, kambag‘allik, sabr kabi konseptlar markaziy mavqe kasb etadi.

Said Ahmad ko‘pincha frazeologik birliklardan kinoya va tanqid vositasi sifatida foydalanadi. Bu esa badiiy matnga milliy ruh bag‘ishlab, o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Adib tilidagi sodda, ammo mazmunan boy birliklar xalq mentalitetining yorqin

ifodasidir. Yozuvchining “Qorako‘z majnun” nomli hikoyasida hikoya qahramoni “Qorako‘z” laqabli it ham aslida lingvomadaniy kod. Asrlar davomida o‘zbek xalqi itdan uyini va molini qo‘riqlashda foydalanib kelgan. Hikoyada ushbu itning bosh qahramon sifatida keltirilishi ham bejiz emas. Saodat ayaning necha yillar avval “o‘ris shaharlarida daydib qolib ketgan” va o‘zligini unutib, tilidan, dinidan, o‘zligidan kechib o‘z Onasini unutgan Bo‘rixon bilan zid qo‘yiladi. It vafodorlik va sadoqat timsolidir. Bo‘rixon bo‘lsa shu itchalik ham bo‘lomagani asarda qarshilantiriladi.

Said Ahmad ijodida lingvomadaniy birliklar umumiy milliy asosga ega bo‘lsa-da, ularning badiiy talqini turlicha. Said Ahmad asarlarida yumor va dramatik tasvir yetakchi o‘rinni egallaydi. Yozuvchi til orqali milliy madaniyatni saqlash va avlodlarga yetkazish vazifasini bajargan. Lingvomadaniy tahlil ushbu asarlarning faqat adabiy emas, balki madaniy ahamiyatini ham ochib beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek badiiy asarlari lingvomadaniy jihatdan nihoyatda boydir. Ularning badiiy matnlarida milliy mentalitet, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlar til birliklari orqali yuksak badiiy darajada ifodalangan. Lingvomadaniy yondashuv ushbu asarlarni chuqurroq anglashga va ularning madaniy qiymatini baholashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U. Qo‘ziyev. Lingvomadaniyatshunoslik. Uslubiy qo‘llanma. – Namangan, 2021
2. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O‘zbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 2019. — №3.
3. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvoturkologik xususiyatlari: Filol, fan. bo‘yicha falsafa dok. diss. — Toshkent, 2017. — 152 b
4. 4. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.
5. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. – М.,1960
6. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. – Toshkent.
- 7.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent.